

UILYAM SHEKSPIR IJODIDA "QIROL LIR" TRAGEDIYASINING
TUTGAN O'RNI**Muzaffarov Javlon Qodirjonovich***Namangan Davlat Chet tillarida Instituti stajor o'qituvchisi*

Anotatsiya: *ushbu maqola Uilyam Shekspir hamda uning mashhur tragediyasi "Qirol Lir" haqida yozilgan bo'lib, bu asarning adib ijodidagi o'rni va asardagi ilgari surilgan g'oyalar haqida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *Uilyam Shekspir, "Qirol Lir", tragediya, sonet, pyesa, adabiyot, dramaturg, G'ofur G'ulom, Olim Xo'jayev.*

Abstract: *this article is written about William Shakespeare and his famous tragedy "King Lear", it is written about the place of this work in literary creation and the ideas presented in the work.*

Key words: *William Shakespeare, "King Lear", tragedy, sonnet, play, literature, playwright, Gafur Ghulam, Olim Khojayev.*

АННОТАЦИЯ: *в данной статье говорится об Уильяме Шекспире и его знаменитой трагедии «Король Лир», говорится о месте этого произведения в литературном творчестве и идеях, изложенных в произведении.*

Ключевые слова: *Уильям Шекспир, «Король Лир», трагедия, сонет, пьеса, литература, драматург, Гафур Гулам, Олим Ходжаев.*

Ingliz adabiyoti ko'p asrlik tarix, buyuk adiblar, milliy xarakter xususiyatlarni aks ettiruvchi betakror asarlardir. Biz bu buyuk mualliflarning kitoblari bilan ulg'ayamiz, ularning yordami bilan rivojlanamiz. Ingliz yozuvchilarining jahon adabiyotidagi tutgan o'rnini va unga qo'shgan hissasini bir so'z bilan ifodalash mushkuldir.

Buyuk ingliz dramaturgi Uilyam Shekspir insoniyat yaratgan daho ijodkorlardan biridir. Uning xalqparvarlik, hurfikrlik, adolat, ezgulik, yuksak insoniy muhabbat g'oyalarini ulug'lab yozgan dramalari va nafis sonetlari asrlar osha barhayot yashab kelmoqda.

Jahon san'ati tarixini Shekspirsiz tasavvur qilish qiyin. Uning teatr san'ati rivojiga bo'lgan ta'siri beqiyos. Uning tragediyalari jahon adabiyoti durdonalari safidan o'rin olgan. Shekspir asarlari bugungi kunda ham dunyo sahnasidan tushmay kelayotir. Shuncha samarali mehnati va shon-shuhratiga qaramay, Uilyam Shekspir hech qanday mukofot olmagan, diplom bilan ham taqdirlanmagan...

Angliyaning Eyvon daryosi bo'yida joylashgan kichkinagina Stratferd shaharchasi barcha xaritalardan ham topilavermaydi. Bu nomni xaritadan izlab topib, eslab qolsangiz, yaxshi. Negaki bu mitti shaharda to'rt yarim asr muqaddam

buyuk ingliz shoiri va dramaturgi Uilyam Shekspir 1564-yil 25-Aprel dunyoga kelgan. Shekspirning bolaligi va o'smirligi haqida ko'p narsa ma'lum emas. Manbalarga ko'ra, u bolaligida uzoq o'qiy olmaydi. Uning otasi qashshoq-lashib qoladi.

Uilyam voyaga yetganida o'z shahridan qochib ketishga majbur bo'ladi. Shekspirning hayoti yoshligidan boshlab oson kechmagan. Nihoyat, u Londonga bo'rib (ehtimol tasodifan), teatrga ishga kirgan. Teatrda Shekspir kichik rollarni ijro etdi. U mashhur aktyor bo'la olmadi, ammo sahna hayotini yaxshi o'rgandi. Bu narsa u teatr uchun pyesalar yoza boshlaganida juda katta yordam berdi. To'g'ri, Shekspir o'zidagi dramaturglik iste'dodini namoyon eta boshlaganidan tortib, uning hayoti sirtdan qaraganda bir xil kecha bordi. Aftidan, u deyarli hech qayerga bormagan va o'zining hamma vaqtini yozuv stoli yonida yoki sahnada - o'z pyesalarining qo'yilishiga yordam bergan holda o'tkazgan. Lekin uning tragediya va komedi-yalari qahramonlari sayohatda bo'ladilar, jang qiladilar, kurashadilar. Shekspir yashagan davr og'ir, notinch, jo'shqin davr edi. Angliya urush olib borar, yangi mustamlakalarni zabt etardi. Voqea qaysi davr yoki qaysi mamlakatda ro'y berishidan qat'i nazar - mana shu jo'shqin davr mashhur dramaturgning har bir asarida o'z aksini topdi.

Shekspir ko'p pyesalar yaratdi. Ulardan biri - Sharqdagi mashhur ishqiy dostonlar - «Layli va Majnun», «Tohir va Zuhra»larga o'xshash bo'lgan «Romeo va Julyetta» - oila-lar o'rtasidagi shafqatsiz dushmanlik yosh sevishganlarni halok etishi haqidagi go'zal va mungli afsonadir.

«Hamlet» tragediyasi aldov va adolatsizlikka qarshi kurashib, bu tengsiz kurashda halok bo'lgan yigit tarixi. 1612-yilda Shekspir so'nggi dramasi «Bo'ron»ni yozgach, poytaxtdan ketadi va o'limiga qadar ona shahri Stratfordda yashaydi. Nafaqat London, balki yozuvchilikni ham tark etib, yer-maydon olib sotish bilan shug'ullandi. Shekspir tragediyalarini yuqori bosqichga ko'targan omillar - asarlar mavzuining boyligi, g'oyaviy yo'nalishining aniqligi, hayotning tabiiy ifodalanishidir. Shu boisdan uning dramatik ijodi dunyo teatrlari repertuarlaridan mustahkam o'rin egalladi.

Shekspirning «Hamlet», «Otello», «Romeo va Julyetta», «Yuliy Sezar», «Qirol Lir», «Koriolan» kabi tragediyalari, «Veronalik ikki yigit» komediyasi Hamza nomidagi akademik drama teatri (hozirgi O'zbek milliy akademik drama teatri)da katta mahorat bilan namoyish etilgan. Ayniqsa, ulug' aktyorimiz Abror Hidoyatov ijro etgan Otello roli ancha muvaffaqiyat qozongan. Kishilar Shekspir asarlarini o'qiydilar va sahnada tomosha qiladilar, undagi insonlar taqdiri va xarakteri haqida bahslashadilar. Ba'zan ular, buning siri nimada, deb o'ylab qoladilar ham. Nima uchun Shekspirning pyesalari unutilmaydi, o'lmaydi, nima uchun tomoshabinlar hali ham ularni ko'rishni istaydilar, aktyorlar esa, bu

pyesalarda rol ijro etishni orzu qiladilar? Shekspir kim to'g'rida yozmasin: Daniya shahzodasimi yoki Misr malikasimi, Venetsiya sarkardasimi, u hamma vaqt barcha davrlarda kishini hayajonga soladigan yuksak insoniy hissiyotlar haqida hikoya qiladi.

Shekspir pyesalardan tashqari she'rlar - sonetlar ham yaratgan. Uning besh jildli «Tanlangan asarlari» o'zbek tilida chop etilgan. Albatta, Shekspir asarlarini o'qish qiyin, lekin juda qiziqarli.

Shekspir ijodida "Qirol Lir" tragediyasi alohida ahamiyatga egadir. Betakror dramaturg Shekspir qalamiga mansub "Qirol Lir" pyesasi yozilgan va sahnada namoyish etilgan vaqti to'g'risida aniq manba saqlanib qolmagan bo'lsa-da, asar 1603–1606-yillar orasida yozilgan, deb taxmin qilinadi. Angliyadagi nashrlarga doir ma'lumotlar saqlanadigan ro'yxatlar kitobida pyesa 1606-yil 26-dekabrda sahnaga qo'yilgani haqidagi ma'lumot qayd etilgan edi.

Shekspirning boshqa pyesalari kabi "Qirol Lir" ham original asari emas, aksincha, avvaldan mavjud bo'lib kelgan pyesaning o'ziga xos yangi talqini edi. Shekspir asarga kiritgan o'zgartirishlar faqatgina bir nechta yangi obrazlar bo'lib qolmadi, u asarning voqealar rivojini tubdan o'zgartirib yuboradigan fojialarni ham pyesa tarkibiga kiritishga qaror qildi.



Aytish mumkinki, qahramonlar o'limi bilan bog'liq fojialar bir paytning o'zida ham pyesaning o'zgachaligini saqlab, uni "Qirol Lir" pyesasining boshqa variantlaridan ko'ra taniqliroq bo'lishiga olib keldi, ham asarning juda ko'p tanqid ostida qolishiga sabab bo'ldi. Hattoki boshqa yozuvchilar asarning "yaxshiroq", qisqacha aytganda, bosh qahramonlar o'lmaydigan va baxtli yakun topadigan muqobil variantlarini ham yozdi. Ammo Shekspirdan so'ng yozilgan pyesalar o'zini oqlamadi va asrlar ichida unutilishga mahkum bo'ldi.

"Qirol Lir" XVII asrdan beri o'z davrining mashhur aktyorlari tomonidan sahnaga olib chiqilmoqda. XX asrgacha pyesada mavjud bo'lgan barcha rollar erkaklar tomonidan o'ynab kelindi. XX asrdan boshlab ba'zi erkak qahramonlar ayollar tomonidan ham o'ynalmoqda. Pyesa asosida film suratga olish esa 1905-yildan beri boshlangan bo'lib, ilk film Germaniyada olindi. Taassufki, film bugungi kungacha saqlanib qolmadi. Xo'sh, butun dunyo bo'ylab keng miqyosda mashhurlikka erishgan tragediya nima haqida va u o'ziga xos qanday jihatlarga ega?

Pyesa Britaniyaning keksa qirol Lirning taxtdan voz kechishga hamda o'z qirolligini uch qiziga bo'lib berishga qaror qilishi to'g'risidagi voqea bilan boshlanadi. Keks qiroli uchala qizini ham sinovdan o'tkazmoqchi bo'ladi va

ulardan o'z otasiga bo'lgan mehrini tasvirlashni so'raydi. Qirolning to'ng'ich hamda o'rtancha qizi Goneril va Regan turli xushomad so'zlar bilan otasining ko'nglini ovlaydi. Kenja qiz Kordeliya esa sukut saqlaydi va hech bir so'z uning otasiga bo'lgan muhabbatini ifodalay olmasligini aytadi. Bu javobdan g'azabga tushgan qirol Kordeliyani merosdan mahrum qiladi. Fransiya qirol Kordeliyani sevib qolgani tufayli unga hech qancha meros tegmagan bo'lsa ham, uni qirol Lirning roziligisiz Fransiya olib ketadi. Merosga ega bo'lgan qizlarining o'ziga nisbatan ko'rsatadigan muomalasi keskinlik bilan yomon tomonga o'zgarganini kuzatgan Lir o'z xatosini anglab yetadi va asta-sekinlik bilan aql-u xushidan ayrila boshlaydi.

Voqealar rivojining boshqa bir tomonida esa keyinchalik Lir bilan uchrashishi ko'zda tutilgan Gloster nomli graf Edmund nomli farzandi hiylasidan jabr tortishi tasvirlanadi. Hiylakor Edmund otasini ukasi Edgardning unga xiyonat qilayotgani va uni o'ldirishni ko'zlayotganiga ishoniradi. Gloster o'g'li Edgardni qidirish uchun odamlarni yuboradi, Edgard esa tilanchi niqobida odamlardan yashirinib, dala-dashtlarga qarab sayohat qilishga majbur bo'ladi.

Jarayonlar o'zgarib, oxir-oqibat xatolarini anglab yetgan Gloster o'zini halok etish niyatini ko'zlagan chog'da uni o'sha farzandi – Edgard qutqarib qoladi. Voqealar rivoji davomida bir necha urush holatlari kuzatiladi. Tragediya esa o'z otiga munosib tarzda ko'plab qahramonlar halokati bilan yakunlanadi. Biroq bu fojialarning asar mazmun-mohiyatiga bevosita ta'siri bormi? Bizningcha, ha. Turli psixologlar ushbu asarni o'z nazariyalari bo'yicha tahlil etishar ekan, obrazlar xarakteri va fojiasiga alohida yondashishni ma'qul ko'radi.

Kopeliya Kanning psixoanalitik tahliliga ko'ra, Qirol Lir qizlaridan uni maqtashlarini so'rashi uning ona mehriga tashnaligini anglatadi. Onasidan yetarlicha mehr ko'rmagan Lir ushbu mehrni qizlaridan talab qilganida, kenja qizining bu taklifni rad etishi qirol uchun haqiqiy hissiy zarba bo'lgan edi. Kordeliyaning o'limigina qirolni o'z fantaziyalaridan xalos etadi.

Psixoanaliz asoschisi Zigmund Freyd esa Kordeliya obrazini o'lim ramzi, deya tasvirlaydi. Shunday ekan, Lirning o'z qiziga bo'lgan munosabati uning o'limga bo'lgan munosabatini ifodalaydi, u o'limni tan olishni istamaydi. Qirol umrning foniy ekanini qabul qila olmaydi. Asarning so'nggi qayg'uli sahnalarida Kordeliyaning halok bo'lishi Freyd uchun muhim nuqta edi. Chunki o'sha nuqtadagina qirol o'zining umrboqiy emasligini tushunib yetib, o'limning muqarrarligi to'g'risidagi fikr bilan murosa o'rnata oldi. Kordeliyani o'limga mahkum etish uchun Shekspirda ma'lum bir sabablar bo'lgani ehtimoldan yiroq emas, chunki "Qirol Lir" pyesalarining boshqa hech bir variantida uning o'limi uchramaydi.

Psixolog Harol Blum esa asosiy e'tiborini Edmund obraziga qaratadi. Unga ko'ra, "Edmund – Shekspirning eng original qahramonidir". Edmund boshqa salbiy obrazlar kabi munofiqlik qilmaydi va undagi hiylakorlik faqat va faqat aql yo'rig'iga ko'ra harakatlanadi. Unda hech qanday ishtiyoq va hissiyot mavjud emas, u hech kimni sevmagan va sevmaydi ham. Shu jihatdan olib qaraganda, bu Shekspirning takrorlanmas qahramonidir.

Umuman olganda, "Qirol Lir" tragediyasi inson tabiatidagi ziddiyatlar, shuningdek, aql va qalb yo'li orasidagi arosat haqida deyish mumkin. Bu ziddiyatlar insonni fojia sari yetaklaydi. Lir qalbi xasta obraz bo'lsa, Edmund "aqli xasta" qahramon edi. Qalb adashishi juda ko'p uchragani sababli Lirning holati va undan chiqariladigan xulosa biz uchun tanish bo'lishi mumkin. Ammo Edmundning holati tamomila boshqacha edi. U faqatgina ziyraklik bilan ish tutishiga qaramay, oxir-oqibat pand yedi.

Buning yagona sababi shundaki, uning tafakkur kuchi yordamida chiqargan qarorlari qalbning ko'magiga muhtoj edi. Tragediya esa eng avval insonning ichida yuz beradi. Biz ko'zimiz bilan ko'rib turgan fojialar esa inson tabiatidagi ziddiyatlar hosilasi bo'lishi mumkin. Har bir inson o'z qalbini asray olganida, dunyoni asrashga hojat qolmagan, tragediyalar esa inson tabiatining oynadagi aksi bo'lib xizmat qilmagan bo'lar edi.

Xulosa qilib aytganda, pesa o'sha davr ijtimoiy-siyosiy hayotida shakllanib kelayotgan kapitalistik munosabatlar, boylikka ruju qo'yish kabi illatlar kishilar o'rtasidagi yuksak fazilatlar sanalgan qardoshlik, oila va birodarlik rishtalarini ham yemirib borayotgani ro'yi-rost tanqid qilingandi.

"Qirol Lir" fojiasini 1956 yil atoqli shoirimiz G'afur G'ulom o'zbek tiliga o'girdi. Tarjima dastlab "Sharq Yulduzi" jurnalida bosilib chiqadi. Mazkur tarjima 1960 yil Shekspir asarlarining bir jildligida, keyinchalik 1981-1985 yillarda chop qilingan besh tomlikka kiritildi. Tragediyani 1966 yilda Hamza teatri sahnalashtirdi. Qirol Lir obrazi atoqli aktyor Olim Xo'jaev talqinida katta falsafiy kuchga ega bo'lib, sahnada u zamonasining gumanist-faylasufi timsolida nomoyon bo'lgan edi.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR:

1. Аникст А. Шекспир. – М.: Молодая гвардия; 1964.-с. 20-30.
2. История зарубежной литературы. Средние века и Возрождение. – М.: Высшая школа, 1987. – С.370.
3. Белинский В.Г. Полн. собр. соч., М., 1953, том 7, с.313.
4. Аникин Г. В., Михальская Н. П. История английской литературы. – М.: Высшая школа, 1975. – с. 46.
5. Сулаймонова Ф. Ўша манба, 144 бет.